BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

DADAYEVA GULCHEXRA SAYDULLAYEVNA

KO‘HISTON BOTANIK-GEOGRAFIK OKRUGINING DENDROFLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 581.4.5.9:582:58.01

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Dadayeva Gulchexra Saydullayevna
Ko‘histon botanik-geografik okrugining dendroflorasi..... 3

Дадаева Гулчехра Сайдуллаевна
Дендрофлора Кухистанского ботанико-географического округа..... 21

Dadaeva Gulchexra Saydullaevna
Dendroflora of the botanical-geographical district of Kuhistan 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……..…. 44

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

DADAYEVA GULCHEXRA SAYDULLAYEVNA

KO‘HISTON BOTANIK-GEOGRAFIK OKRUGINING DENDROFLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/B435 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.botany.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Raximova Tashxanim** biologiya fanlari doktori, professor
	Baysunov Babir Xidirovich biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat Pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «3»-oktabr kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (76-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262- 37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «17» sentabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «17» sentabr 15-raqamli reyestr bayonnomasi).

O.K. Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, b.f.d., professor

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xo‘jalik faoliyati ko‘lamining keskin o‘sishi biologik xilma-xillikning o‘zgarishi, turlar va ekotizimlar sonining qisqarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb muammolaridan biri turlar tarkibini aniqlash, mintaqaviy tarqalishi va zaif komponentlarni saqlab qolish choralarini ishlab chiqish bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy floristik tadqiqotlarda hududlarni botanik-geografik rayonlashtirish va o‘simliklar xilma-xilligini keng miqyosda tadqiq etish, milliy va mintaqaviy floraning zamonaviy konspektlarini tuzish, kamyob va endem turlar populyatsiyalarining hozirgi holatini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada kam o‘rganilgan hududlar florasining tarkibini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osiyoning tog‘li hududlari florasida Zarafshon, Turkiston va Molguzar tog‘ tizmalarini o‘z ichiga olgan Ko‘histon botanik-geografik okrugi o‘zining yuqori floristik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Molguzar va Turkiston tog‘ tizmalari biologik xilma-xillikning mahalliy genofondini saqlab qolishda alohida o‘rin tutadi va tizmalar florasining o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, aynan shu tizmalar yovvoyi daraxt va buta turlariga boy tarkibga ega. Biroq, bugungi kunda ular haqidagi mavjud bilimlar majmui fundamental va amaliy fanning zamonaviy talablariga, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvor masalalariga javob bermaydi. Shunga ko‘ra, mazkur hudud dendroflorasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning Ko‘histon okrugi dendroflorasidagi o‘rnini baholash, turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalarini yaratish, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda biologik xilma-xillikni samarali saqlash va o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish uchun mahalliy floralarning taksonomik xilma-xilligini aniqlash, ularning tabiiy yashash joylarini saqlab qolish, o‘simlik xom-ashyosi zaxiralarini baholashga tobora katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida mamlakatning geografik va iqlim xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muhim vazifalar belgilangan. Bunday vazifalardan biri “tog‘ oldi va tog‘ ekotizimlarining zaifligi tufayli o‘simlik dunyosi ob’yektlarining holatini saqlash va tartibga solish”[1] dan iborat.

Shundan kelib chiqqan holda, ushbu yo‘nalishda, jumladan, Janubi-G‘arbiy Tiyon-Shon, Hisor tizmasi, Buxoro vohasi, Qizilqum qoldiq past tog‘lari, Chotqol, Nurota, Zomin, Hisor va Surxon davlat qo‘riqxonalari florasini aniqlash, kamyob

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni”

va yo‘qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish, xo‘jalik ahamiyatiga molik turlaridan samarali foydalanish kabi muhim natijalarga erishildi. Shu bilan birga, kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlari tarkibini aniqlash, o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanish, jumladan, asosiy muhit hosil qiluvchi o‘simliklar-dendrofloraning taksonomik tarkibini aniqlash, ularning zamonaviy konspektini tuzish, tarqalishini to‘r tizimli xaritalash va kamyob, yo‘qolib borayotgan va endem turlarni kompleks o‘rganish, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 5-sentyabrdagi 737-son “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turli biogeografik hududlar dendroflorasini kompleks tahlil qilish va konspekt tuzishga bag‘ishlangan tadqiqotlar xorijlik olimlardan J.T. Kerr (1997), N. Myers & al. (1998, 2000), J.L. Vivero & al. (2005), A.C. Newton & al. (2008), A. Eastwood & al. (2009); endem turlarning tarqalishi L. Peruzzi & al. (2014), F. Memariani & al. (2016), dendrofloraning taksonomik, geografik tuzilishi va muhofaza masalalari P. Quezel & al. (1999), Z.K. Manvelidze (2010), G. Abbate & al. (2012), E. Beech & al. (2017), F. Medail & al. (2019), R. Meddour & al. (2021), D. Beresford-Kroeger (2021, 2024) va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlarida esa batafsil floristik ro‘yxatlar B.B. Меркер (2009), M.M. Силантьева (2010), Ф.С. Омархаджиева (2011), Н.Н. Портениер (2012), А.С. Серегин (2011, 2014) tomonidan tuzilgan; O‘rta Osiyodagi bunday tadqiqotlarga P.B. Камелин (1973, 1990), Г.А. Лазьков va boshqalar (2014), H.M. Сафаров (2017) ishlari misol bo‘la oladi. Dendroflora ob’yektlarini yorqin klassik misollari А.К. Скворцов (1968), M.Тўлаганова (1972), М.Г. Пахомова, В.В. Фисюн (1976) va boshqalarning ishlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda bu kabi tadqiqotlar Ф.Н. Русанов (1949, 1965), И.А. Кульбачный (1968), А.У. Усмонов (1974, 1986), N.E. Daminova (2023) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ko‘histon okrugining Turkiston va Molguzar tog‘ tizmalarida dastlabki

botanik tadqiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Bu hududda botanik tadqiqotlar bilan A.Regel (1876-1885), П.Капю va Г.Бонвало (1881), В.И. Липский (1890) shug‘ullangan. XX asrda bu hududda Б.С. Закржевский (1932, 1935), Е.Е. Короткова va А.П. Васильковская (1937, 1938) kabi olimlar tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Tadqiqot hududi dendroflorasining tarkibi М.Г. Попов, Н.В. Андросов (1937), К.З. Зокиров (1955, 1961), Е.М. Демурина (1972, 1975), Р.В. Камелин (1979) ishlarida qisman aks ettirilgan. Bundan tashqari, mazkur hududda 1926-1980-yillar mobaynida taniqli botaniklar va kollektorlar (Попов, Закржевский, Демурина, Коровин, Культиасов, Введенский, Советкина, Титов, Дробов, Гомолицкий, Халкузиев, Короткова, Пятаева, Бутков, Набиев, Шерматов, Пратов, Левичев, Камелин, Белолипов va boshqalar) tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondlarida tadqiqot hududidan yig‘ilgan 500 ga yaqin gerbariy namunalari saqlanmoqda.

Molguzar tizmasi (Азимова, 2018), Zomin qo‘riqxonasi (Эсанкулов, 2012; Хасанов ва Эсанкулов, 2012; Тиркашева, 2013) va Jizzax viloyati (Тожибаев va bosh., 2021) shuningdek, Sanzar (Тиркашева, 2011) va Zominsuv (Ботирова, 2012) daryolari havzalarining o‘simliklar qoplamiga bag‘ishlangan ishlar Ko‘histon okrugining o‘simliklar xilma-xilligi haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada kengaytirish imkonini berdi. Biroq, mavjud ma’lumotlar mazkur floraning daraxt va buta turlarining to‘liq tarkibini aniqlash imkonini bermaydi. Shu nuqtayi nazardan, Ko‘histon okrugi Molguzar va Turkiston tog‘ tizmalari dendroflorasining zamonaviy konspektini tuzish, keng ko‘lamli tahlilini amalga oshirish, dendroflora turlarining yalpi to‘r tizimli xaritasini tuzish kamyob va endem turlar populyasiyalarining zamonaviy holatini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zR FA Botanika institutining G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panj oldi okruglari florasining to‘r tizimli xaritalash (Surxondaryo viloyati) (2021-2024) mavzusidagi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ko‘histon okrugi dendroflorasining taksonomik tarkibini aniqlash, to‘r tizimli xaritalash va keng ko‘lamli tahlillarni amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ko‘histon botanik-geografik okrugining ikki tizmasi (Molguzar va Turkiston) dendroflorasining taksonomik tarkibini aniqlash va konspektini tuzish;

to‘r tizimli xaritalash asosida turlarning tarqalish xususiyatlarini aniqlash;

dendrofloraning taksonomik, biomorfologik, geografik va balandlik bo‘ylab tarqalishi tahlillarini amalga oshirish;

Ko‘histon okrugi dendroflorasining muhofazaga muhtoj turlari tarkibini izohlash.

Tadqiqotning obyekti – Ko‘histon okrugining Molguzar va Turkiston tog‘ tizmalarining daraxt va butalari florasi.

Tadqiqotning predmeti Ko‘histon okrugi dendroflorasining zamonaviy konspekti hamda, dendrofloraning taksonomik, geografik, biomorfologik tahlili, xaritalash va turlarni saqlab qolishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada floristikaning klassik va zamonaviy, marshrutli, yarim statsionar, botanik-geografik, floristikaning biomorfologik usullari, hamda to‘r tizimli va GAT xaritalashning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Molguzar va Turkiston tog‘ tizmalarining (O‘zbekiston Respublikasi hududida) dendroflorasi kompleks o‘rganilib, 26 oila 46 turkumga mansub 116 turdan iborat ekanligi aniqlanib, uning zamonaviy konspekti tuzilgan va keng ko‘lamli tahlillari amalga oshirilgan;

Ko‘histon okrugi dendroflorasida Qadimiyo‘rtayerdengizi va Tog‘lio‘rtaosiyo areal sinflariga mansub turlarning ustunlik qilishi asoslangan;

Ko‘histon botanik-geografik okrugi uchun bitta yangi tur (*Populus nigra*) va Zomin davlat qo‘riqxonasi uchun yettita (*Morus nigra, Platanus orientalis, Populus alba, Prunus armeniaca, Prunus cerasifera, Salix alba, Ulmus glabra*) yangi tur keltirilgan;

to‘r tizim asosida turlarning tarqalish xaritasi tuzilgan;

IUCN Red List ro‘yxatiga kiritilgan *Lonicera paradoxa* hamda *Pyrus korshinskyi* turlarining yangi populyatsiyalari topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Pyrus korshinskyi – areali qisqarib borayotgan kamyob endem turini ishchi guruh tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining navbatdagi nashriga kiritish uchun tavsiya etilgan va arealining qisqarish sabablari aniqlangan;

Ko‘histon okrugi tarkibiga kiruvchi Molguzar va Turkiston tog‘ tizmalari dendroflorasi bo‘yicha mavjud barcha ma’lumotlar to‘r tizimli xaritalash asosida raqamli formatga o‘tkazildi. Ko‘histon okrugi hududi har bir maydoni 5x5 km bo‘lgan 263 ta kvadratlarga (indekslar) ajratilgan, 1926-yildan boshlab to‘plangan floristik ma’lumotlar to‘plangan va kvadratlar kesimida tahlil qilingan. Bu usul orqali taqdim etilayotgan ma’lumotlarning ishonchliligini va tahlilning aniqligini ko‘rsatadi;

“Qizil kitobi”ga kiritilgan Ko‘histon okrugining 3 ta kamyob va 1 ta subendemik turlari IUCN (2024) toifalari va mezonlari bo‘yicha baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi floristik tadqiqotlarning zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, olingan natijalarning mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarning O‘zbekiston florasining yangi nashriga, mamlakatimiz tabiiy florasini to‘r tizimli xaritalash singari fundamental loyihalariga, tabiatni muhofaza qilish davlat tashkilotlarining ish faoliyatiga joriy etilganligi, shuningdek, tadqiqot ishida O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), Moskva davlat universiteti gerbariysi (MW), Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Botanika instituti (LE) kabi yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor Ko‘histon botanik-geografik okrugi tarkibiga kiruvchi

Molguzar va Turkiston tog‘ tizmalari dendroflorasining taksonomik tarkibi aniqlanganligi, uning zamonaviy konspekti tuzilganligi, keng ko‘lamli tahlillar amalga oshirilgani, O‘zbekiston florasi uchun yangi turlar keltirilganligi, kamyob va ayrim subendem turlarning IUCN toifalari bo‘yicha baholanganligi, barcha tadqiq etilgan turlarning tarqalishini ifodalovchi to‘r tizimli GAT xaritalari yaratilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Ko‘histon okrugi Turkiston va Molguzar tog‘ tizmalari dendroflorasi turlarini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish, kamyob va yo‘qolib borayotgan turlar populyatsiyalari monitoringini yo‘lga qo‘yish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘histon okrugi dendroflorasi tarkibini tadqiq qilishda olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston hududi Ko‘histon okrugidan yig‘ilgan dendrofloraning 116 ta turlarining 4150 dan ortiq gerbariy namunalari va ularga tegishli ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 19-iyundagi 4/1255-1341-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Ko‘histon okrugining Shimoliy Turkiston va Molguzar botanik-geografik rayonlari floralasining yangi gerbariy namunalari noyob TASH ilmiy ob’yekti fondlarining O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini sezilarli darajada boyitish va dendroflora turlarining taksonomiyasi, geografiyasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar O‘zbekiston florasi bo‘yicha axborot-tahliliy tizimni to‘ldirish imkonini bergan.

Ko‘histon botanik-geografik okrugining O‘zbekiston qismidagi Turkiston va Molguzar tizmalaridan yig‘ilgan 4150 dan ortiq raqamlashtirilgan geobog‘langan gerbariy namunalarini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasi Bioxilma-xillik boyicha global axborot ma’lumotlar tizimiga joriy etilgan (Global Biodiversity Information Facility, www.gbif.org, 2024-yil 30-iyuldagi 012-son ma’lumotnomasi). Natijada, Ko‘histon botanik-geografik okrugining O‘zbekiston qismidagi ikki tizma (Molguzar va Turkiston) dendroflorasi turlarining joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar xalqaro miqyosdaolish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy (Scopus va WOS bazalarida indekslangan) jurnallarda hamda 12 ta xalqaro va 6 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning

maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Ko‘histon botanik-geografik okrugida tabiiy floralar tarkibidagi daraxt va buta turlarini o‘rganilish tarixi»** deb nomlangan birinchi bobi ikki bo‘limdan iborat. Bobning birinchi bo‘limida tadqiqot hududi dendroflorasining qisqacha o‘rganilish tarixi adabiyot ma’lumotlari asosida bayon etilgan bo‘lsa, ikkinchi bo‘limida Ko‘histon okrugi dendroflorasiga oid gerbariy fondlarida saqlanayotgan gerbariy namunalari batafsil tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqotning ob’yekti va metodlari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob’yektlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu dissertatsiya ishida qo‘llanilgan klassik va zamonaviy floristik tadqiqot usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, to‘r tizimli xaritalash ma’lumotlari ArcGis (10.6.1) dasturida *Attribute Table* paneli yordamida shape fayllarga biriktirildi. Olib borilgan tadqiqot hududida asosiy ob’yekt va hududlarni ko‘rsatadigan marshrutli xarita tuzildi. Mazkur xaritada 2020-2024-yillarda olib borilgan tadqiqotlar davomidagi Ko‘histon okrugi asosiy hududlari belgilangan (1-rasm).



1-расм. 2020-2024-yillarda olib borilgan tadqiqotlarning asosiy hududlari sxemasi.

Dissertatsiyaning **«Ko‘histon okrugining ikki rayoni – Shimoliy Turkiston va Molguzar dedroflora turlarining konspekti»** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot hududi dendroflora konspektining tuzilishi hamda yangi floristik topilmalar keltirilgan.


Bobning “Ko‘histon botanik-geografik okrugi dendroflorasining konspekti” deb nomlangan birinchi bo‘limida Ko‘histon okrugining O‘zbekiston qismida (2020-2024-yillarda) olib borilgan tadqiqotlar davomida muallif tomonidan 116 turga mansub 4150 dan ortiq gerbariy namunalari asosida dendroflora konspekti tuzildi. Konspektda Ochiq urug‘lilar (Gymnospermae) oilalari Christenhusz & al. (2011) tizimi bo‘yicha keltirilgan. Yopiq urug‘lilar (Angiospermae), turkum va turlari qidiruvni qulaylashtirish maqsadida APG IV (2016) tizimi bo‘yicha alifbo

tartibida joylashtirilgan. Konspektda har bir turning lotincha va o‘zbekcha binar nomidan keyin dastlabki tavsif manbai, hayot shakli, areal tipi, ekologiyasi, balandlik mintaqasi, botanik–geografik rayonlar kesimida tarqalishi, xo‘jalik ahamiyati, kollektorlari keltirilgan (to‘liq ma’lumot dissertatsiyaning 1-ilovasida keltirilgan).

Bobning ikkinchi bo‘limi o‘rganilayotgan hududning yangi floristik topilmalariga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida 1 tur Ko‘histon BGO va 7 tur Zomin davlat qo‘riqxonasi uchun yangi tur sifatida keltirildi.

Dissertatsiyaning **«Ko‘histon okrugi dendroflorasi turlarining to‘r tizimli xaritalash natijalari»** deb nomlangan to‘rtinchi bobida dendrofloraning yoppasiga to‘r tizimli xaritalash asosida tarqalish xususiyatlari o‘rganilgan. Hozirgi kunda mahalliy floralar tarkibidagi turlarning to‘r tizimli asosida tarqalishini aks ettiradigan tadqiqotlar nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyoda o‘simliklar xilma-xilligini hujjatlashtirishda yangi yo‘nalish hisoblanadi (Tojibaev et al., 2022). Qabul qilingan metodikaga ko‘ra, o‘rganilayotgan hudud 5x5 km o‘lchamdagi 263 indeksga (to‘r kvadratlari, to‘r kataklari) ajratilgan (2-rasm).

To‘r tizimli xaritalash uchun muallif tomonidan 2020–2024 yillarda yig‘ilgan 4153 gerbariy namunalari va 1926–2019 yillarda yig‘ilgan va TASH, MW, LE fondlarida saqlanayotgan 56 turga mansub 500 dan ortiq gerbariy namunalar asos bo‘lib xizmat qildi. Xaritalash natijalari ikkita asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha tahlil qilindi: turlar boyligi (*species richness, SR*) – to‘r kataklari bo‘yicha aniqlangan turlari soni va yig‘malar zichligi (*collection density, CD*) - to‘rning har bir to‘r kataklaridan yig‘ilgan gerbariy namunalari soni. 2a-rasmdan ko‘rinib turibdiki, dendroflora turlari qayd etilgan 263 ta indeksdan eng yuqori turlar boyligi ko‘rsatkichi 80 ta turni (BB220, BC206, BC209, BD220 va BF213 indekslari, Zomin tumani, O‘riklisoy darasi; Baxmal tumani, Duoba qishlog‘i), yig‘malar zichligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich 476 (BB220 indeks, 2b-rasmga qarang) tashkil etadi.



2-rasm. Ko‘histon okrugi (O‘zbekiston hududida) dendroflorasidagi to‘r tizimli xaritasi: A-turlarning xilma-xilligi (*SR*): B-yig‘malar zichligi (*CD*).

Tadqiqot davomida 263 katakning 246 tasida Rosaceae oila turlari yetakchilik qilishi aniqlandi, bu esa polimorf oilalar orasida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Ra’nodoshlarning eng kop turlarga boyligi BB220 (23

tur, Turkiston tizmasi, Zomin tumani), BC209 (20 tur, Turkiston tizmasi, Baxmal tumani), shuningdek, BC205 va BC215 (16 turdan) indekslarida kuzatildi. Yig‘malarning yuqori zichligi BC205 (260), BG212 (206), BB220 (172) va BD206 (130) indekslarida uchrashi aniqlandi. Bu indekslar Turkiston tizmasida dengiz sathidan 850-3300 m balandlikda joylashgan. To‘liq to‘r tizimli xaritalash shuni ko‘rsatdiki, 1100 m dan 2500 m gacha bo‘lgan balandlikda eng yuqori turlar xilma-xilligi va yig‘malarning yuqori zichligi kuzatildi. Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘irida, xususan, Zomin va Baxmal tumanlarida (BB220 va BC209 80 turdan) turlarining eng yuqori ko‘rsatkich bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, turlarning indekslar kesimida taqsimlanish natijalariga ko‘ra, Turkiston tizmasi, Zomin milliy bog‘i (BD219 (46), BD220 (37), BC219 (24), BB219 (20) va Molguzar tizmasida G‘allaorol tumani, Ravot va Achchi daralari (BH207 (36), BH210 (35), BD211 (20)) Ko‘histon okrugining boshqa hududlariga nisbatan turlar boyligi va yig‘malar zichligi yuqori ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi **«Ko‘histon okrugi dendroflorasining keng ko‘lamli tahlili»** deb nomlangan va unda floraning taksonomik, geografik va biomorfologik tahlillari hamda balandlik mintaqalari bo‘yicha taqsimlanishi natijalari keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limi dendrofloraning taksonomik tahliliga bag‘ishlangan. 2020–2024-yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar natijasida dendrofloraning 26 oila va 46 turkumga mansub 116 turi aniqlangan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning butun dendroflorasining qariyb 36.25% ni tashkil etadi va tadqiqot hududining G‘arbiy Pomir-Oloy daraxt va buta o‘simliklarini saqlab qolishdagi yuqori ahamiyatini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu dendroflorani Pomir-Oloy floralari orasida ham, G‘arbiy Tyan-Shan floralari orasida ham eng boylaridan biri deb hisoblash mumkin.

Ko‘histon okrugining O‘zbekiston qismi (Shimoliy Turkiston va Molguzar botanik-geografik rayonlari) dendroflorasining asosini Yopiq urug‘lilar (Magnoliophyta) tashkil etadi, ular o‘rganilayotgan hududda 24 oila (92.31%) va 44 turkum (95.65%) ga mansub 108 tur (93.11%) bilan ifodalanadi. Taksonomik spektrda Ochiq urug‘lilarning (Pinophyta) umumiy ulushi kichik, atigi 6.89% ni tashkil etadi. Ochiq urug‘lilar kam sonli turlari Tog‘li o‘rta osiyoning janubiy qismidagi tabiiy florasiga o‘ziga xos xususiyatidir (Kamelin, 1979, 1990). Ular Ko‘histon okrugi florasida ikki oila – Ephedraceae (*Ephedra*, 5 tur) va Cupressaceae (*Juniperus*, 3 tur) bilan ifodalanadi. Shu bilan birgalikda, o‘rganilayotgan hududda o‘simlik qoplamining asosiy dominantlari aynan ochiq urug‘lilar, birinchi navbatda *Juniperus* turkumining ikki turi (*Juniperus seravschanica* va *J. semiglobosa*) tashkil etadi.

Turlarning yarmidan ko‘pi (77 tur, jami 66.37%) turlar soni bo‘yicha beshta yetakchi oila tarkibida to‘plangan (1-jadval). Tadqiqot hududini dendroflorasining yetakchi beshta oila Rosaceae (41 tur), Fabaceae (12), Salicaceae (10), Caprifoliaceae (9) va Ephedraceae (5) tashkil etadi. Ular 22 turkumni (47.83%) o‘z ichiga oladi. Qolgan 21 oila 24 turkumga mansub 39 tur

bilan ifodalanadi va o‘rganilayotgan hududdagi daraxt va butalarning umumiy florasining atigi 33.63% ni tashkil etadi.

Ko‘rib chiqilayotgan dendrofloraning o‘ziga xos xususiyatlari turkumlarda turlar sonining taqsimlanishini tahlil qilishni aks ettiradi, chunki quyi darajadagi taksonlar atrof-muhitning turli sharoitlariga ko‘proq bog‘liq (Kamelin, 1973). Yetakchi turkumlar spektriga besh va undan ortiq turni o‘z ichiga olgan yetti turkumni kiritdik. Ushbu spektrga 10 tur bilan *Prunus* (8.60%), *Rosa* va *Lonicera* – har biri 9 tur (7.76%), *Cotoneaster* va *Astragalus* – har biri 7 tur (6.03%), *Salix* (6; 5.17%) va *Ephedra* (5; 4.31%) kiradi (1-jadval), ular umumiy dendrofloraning (53 tur) 45.69% ni tashkil qiladi. O‘rganilayotgan dendrofloraning yetakchi turkumlari spektri tog‘li O‘rta Osiyoning janubiy qismi elementar tabiiy florasining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Qolgan 63 tur (54.31%) 39 turkumda qayd etilgan. *Tamarix, Populus, Berberis, Caragana, Rhamnus* va boshqa turkumlarda turlar sonining nisbatan kamligi tabiiy-iqlim sharoiti va tadqiqot hududining joylashuvi bilan bog‘liq.

Tadqiqot hududi dendroflorasining yetakchi turkumlari spektri ham mahalliy floraning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, avtoxton tog‘li O‘rta Osiyo turlarining yuqori ulushiga ega, shuningdek, Old Osiyo, Pan-Himoloy floralari bilan keng aloqadorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, ushbu turkumlarning yetakchi o‘rnini ularning keng tarqalganligi va Tog‘lio‘rtaosiyo provintsiyasining Ko‘histon okrugi uchun xos bo‘lgan o‘sish joylarining sezilarli xilma-xilligi bilan izohlash mumkin (Kamelin, 1979).

1–jadval

Ko‘histon botanik-geografik okrugi dendroflorasidagi oila va turkumlarning spektri

№	Oilalar	Turkum soni	Turlar soni	%	Turkumlar	Turlar soni	%
1	Rosaceae	13	41	35.34	*Prunus*	10	8.60
					Rosa	9	7.76
					Cotoneaster	7	6.03
2	Fabaceae	5	12	10.34	*Astragalus*	7	6.03
3	Salicaceae	2	10	8.62	*Salix*	6	5.17
4	Caprifoliaceae	1	9	7.76	*Lonicera*	9	7.76
5	Ephedraceae	1	5	4.31	*Ephedra*	5	4.31
Jami		22	77	66.37		53	45.66
	Qolgan oilalarda (21)	24	39	33.63	Qolgan turkumlarda (39)	63	54.34
		46	**116**	**100%**		**116**	**100%**

Turkiston tog‘ tizmasi Molguzar tog‘ tizmasidan sezilarli darajada ustunlik qiladi (2-jadval). Bu yerda Zomin qo‘riqxonasining roli yuqori bo‘lib, uning hududida daraxt va butalarning ko‘plab turlari o‘sadi, ular asosan Rosaceae (39 tur), Fabaceae (12) va Caprifoliaceae (9) kabi oilalarda uchraydi (Esanqulov, 2012, muallifning tadqiqotlari bilan to‘ldirilgan).

2–jadval

Dendrofloraning yetakchi polimorf oilalari turlarining tadqiqot hududidagi ikkita yirik tizmalarda tarqalishi

Oilalar	Turlar soni		Ko‘histon okrugi dendroflorasining umumiy turlar soni
	Turkiston	Molguzar	
Rosaceae	39 (33.62%)	35 (30.17%)	41 (35.34%)
Fabaceae	12 (10.34%)	12 (10.34%)	12 (10.34%)
Salicaceae	10 (8.62%)	7 (6.03%)	10 (8.62%)
Caprifoliaceae	9 (7.76%)	3 (2.59%)	9 (7.76%)
Ephedraceae	4 (3.45%)	4 (3.45%)	5 (4.31%)
Jami:	**74 (63.79%)**	**61 (52.59%)**	**77 (66.38%)**

Shunday qilib, Ko‘histon botanik-geografik okrugi daraxt va butalar soni bo‘yicha Tog‘lio‘rtaosiyo provinsiyasining eng boy hududlaridan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot hududi dendroflorasining taksonomik tarkibi, yetakchi oila va turkumlar spektri, hamda oila-turkum va oila-tur spektrlarining umumiy nisbati, umuman olganda O‘rta Osiyoning janubiy tog‘li hududlarning elementar tabiiy floralariga xos bo‘lgan qonunlarni aks ettiradi.

Bobning ikkinchi bo‘limi o‘rganilayotgan dendrofloraning geografik tahliliga bag‘ishlangan. Geografik tahlilda turlarning areal tiplari va sinflari bo‘yicha taqsimlanishi asosida amalga oshirilgan (Krasovskaya, Levichev, 1986; Tojibayev, 2010) hamda ikki tizma (Turkiston va Molguzar) bilan mos keladigan turlar botanik-geografik rayonlar bo‘yicha taqsimlanashi tahlil qilingan (Tojibaev et al., 2017). Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Ko‘histon okrugi dendroflorasining 116 turi 28 areal tiplari bo‘yicha taqsimlangan va ular 5 areal sinfiga birlashtirilgan (3-jadval).

3-jadval

Ko‘histon okrugi dendroflorasining asosiy areal sinflari nisbati

№	Areal sinflari	Areal tiplar soni	Turlar soni	% dendrofloradan
1	Tog‘lio‘rtaosiyo	7	33	28.45
2	O‘rta osiyo	4	26	22.41
3	Qadimiyo‘rtayerdengizi	7	43	37.07
4	Palearktik	9	13	11.21
5	Golarktik	1	1	0.86
Jami:		**28**	**116**	**100**

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Ko‘histon okrugi fanerofitlarining katta qismi Qadimiyo‘rtayerdengizi va Tog‘lio‘rtaosiyo elementlariga mos keladi. Ular tadqiqot hudud dendroflorasi umumiy turlarining yarmidan ko‘pini (65.52%) tashkil etadi, bu uning avtoxtonligidan dalolat beradi. Turlar soni bo‘yicha Qadimgio‘rtayerdengizi sinfi 43 tur (37.07%) bilan ustunlik qiladi, bu esa Ko‘histon okrugi dendroflorasining yetarlicha keng geografik aloqalarini aks ettiradi (Kamelin, 1979). Qadimiyo‘rtayerdengizi turlarining eng yuqori konsentratsiyasini Rosaceae (16 tur, 13.79%), Salicaceae (7, 6.03%) va Ephedraceae (3, 2.59%) oilalarida ko‘rish mumkin. Mazkur sinf bor-yo‘g‘i yetti areal tipini o‘z ichiga oladi, ulardan Eron-o‘rtaosiyo tipi 11 tur bilan ustunlik qiladi va bu turlarning aksariyati shiblyak elementlari hisoblanadi (*Berberis nummularia, Cotoneaster suavis, Sorbus persica,*

Rosa beggeriana, Rosa kokanica, Crataegus pontica, Pistacia vera). Shuningdek, sinf tarkibida Qadimiyo‘rtayerdengizi (9 tur; 7.76%), Sharqiy-qadimgio‘rtayerdengizi va Himoloyoldi (har biri 8 turdan; 6.89%) areal tiplari ham jamlangan. Tog‘lio‘rtaosiyo sinfi tarkibiga 33 turni (28.45%) kiritamiz. Tog‘lio‘rtaosiyo elementlarining yetakchi oilalar tarkibida ishtirok etishi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Rosaceae (9 tur; 7.76%), Fabaceae (6; 5.17%) va Caprifoliaceae (5; 4.31%) tog‘lio‘rtaosiyolik avtoxton turlarga boy oilalar hisoblanadi. Geografik jihatdan kengroq bo‘lgan qolgan turlar, areal sinflari kam sonli turlar bilan ifodalanadi (3-jadval) va tadqiqot hududning Eski dunyo keng geografik aloqalarini (*Spiraea hypericifolia, Salix blakii, Dasiphora parvifolia, Myricaria bracteata*) aks ettiradi (Galushkin va boshq., 2020; Popova, 2021).

Qiyosiy tahlil uchun Ko‘histon okrugi bilan Farg‘ona vodiysi va Kuhitang hududlarining dendroflorasi tarkibi tanlab olindi. Taqqoslanayotgan dendroflora ko‘rsatkichlari P. Jakkard (Shmidt, 1986) koeffitsiyenti yordamida aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, umumiy turlar soni bo‘yicha Ko‘histon (116 tur) Farg‘ona vodiysidan (165) ortda qolsada, Kuhitang (37) hududiga nisbatan ancha yuqori tur boyligiga ega ekanligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Taqqoslanayotgan dendrofloralarning asosiy parametrlari

Parametrlar	Ko‘histon BGO	Farg‘ona vodiysi	Kuhitang
Turlar soni	116	165	37
Turkumlar soni	46	60	21
Oilalar soni	26	32	12
KBGO bilan umumiy turlar soni	-	82	24
Oiladagi turlarning o‘rtacha soni	4.46	5.16	3.08
Oiladagi turkumlarning o‘rtacha soni	1.76	2.75	1.76
Jakkard koeffitsiyenti	-	0.41	0.20

Jakkard koeffitsiyenti natijalariga ko‘ra, Ko‘histon okrugi Farg‘ona vodiysi dendroflorasi bilan umumiy 82 turi mavjud bo‘lib (Jakkard koeffitsiyenti 0.41), bu ikki hudud o‘rtasida dendrofloristik o‘xshashlik darajasi nisbatan yuqoriligi va ekologik-geografik yaqinligini ko‘rsatdi.

Bobning uchinchi bo‘limi floraning biomorfologik tuzilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, I.G. Serebryakovning (Serebryakov, 1964) ta’rifiga ko‘ra, o‘simlik turlarining yashash sharoitiga moslashish xususiyatini aks ettiradi. Hortal et al. (2015) fikriga ko‘ra, turlarning belgilari, shu jumladan ularning biomorfologik xususiyatlari (ya’ni *Raunkiaeran shortfall*) haqidagi zaif bilimlar yuksak o‘simliklarning global xilma-xilligi haqidagi keng ko‘lamli bilimlarga to‘sqinlik qiluvchi yetti bo‘shliqdan biridir.

Ko‘histon okrugi dendroflorasini biomorfologik tahlil qilishda C.Raunkiaer (1934) tomonidan taklif etilgan hayot shakllari tasnifidan foydalandik. Tasnifga ko‘ra, tadqiqot hududi dendroflorasi tarkibida fanerofitlar, ya’ni daraxtlar va butalar ustunlik qiladi. Ularda yangilanish kurtaklari yer sathidan 30 sm dan yuqori vertikal o‘suvchi novdalarda joylashgan (Larcher, 2020; Morozova va boshq., 2024). Biz tomonimizdan tuzilgan ro‘yxatda fanerofitlar (Phanerophyta, Ph) dendroflorasi 22 oila va 37 turkumga mansub 95 turdan iborat (6-jadval).

6-jadval

Fanerofitlarning oilalar bo‘yicha taqsimlanishi

Fanerofitlar						
№	Oilalar	Turlar soni	%	Mezo	Mikro	Nano
				Turlar soni		
1	Rosaceae	39	33.62	4	14	21
2	Salicaceae	10	8.62	-	10	-
3	Caprifoliaceae	9	7.76	-	-	9
4	Fabaceae	4	3.45	-	-	4
5	Ulmaceae	4	3.45	-	4	-
Jami		66	56.9	4	28	34
	Qolgan oilalarda (17)	29	24.99	3	12	14
		95	81.89	7	40	48

Qolgan 17 oilada fanerofitlar 29 tur (24.99%) bilan ifodalanadi. O‘zbekistonning boshqa tog‘li hududlariga nisbatan (Turginov, 2017; Abduraimov, 2021; Daminova, 2023 va boshq.) mazkur hududda fanerofitlarning nisbatan yuqori xilma-xilligi Shimoliy Turkiston rayonining o‘rta tog‘li qismining nisbatan qulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog‘liq (Kamelin, 1979; Esanqulov, 2012). A.S. Esanqulovning ma’lumotlariga ko‘ra, Zomin qo‘riqxonasi florasida ushbu biomorfologik guruhning kamida 94 turi uchraydi (Esanqulov, 2012). Tojikistonning chegaradosh hududidagi Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘rida joylashgan Shahriston florasi fanerofitlarning kamida 268 turini o‘z ichiga oladi, ulardan 30 ga yaqin turi Tojikiston Qizil kitobiga kiritilgan (Xisoriyev, 2017), 60 ga yaqin turi esa yovvoyi mevali daraxtlar hisoblanadi (Qorayev, 2024). Qadimiyo‘rtayerdengizi elementlaridan Shahriston florasida keng bargli o‘rmonlar (*Juglans regia, Acer turkestanicum*) va kserofit siyrak o‘rmonlar (*Celtis caucasica, Acer regelii, Crataegus pontica, Fraxinus raibocarpa, Pistacia vera*) jamoalari, shuningdek, ko‘plab relikt butalar (*Ribes, Lonicera, Cotoneaster*) saqlanib qolgan bo‘lib, ular tadqiqot hududi dendroflorasi bilan o‘xshashliklari ega.

Fanerofitlarning kichik guruhlaridan o‘rganilgan flora tarkibida 48 tur (41.38%) bilan nanofanerofitlar (Nanophanerophyta, Phn, 2–3 m gacha bo‘lgan butalar, tuproq yuzasida yangilanish kurtaklari mavjud) ustunlik qiladi. Eng kam sonli mezofanerofitlar (Mesophanerophyta, Phms, daraxtlar, balandligi 8 dan 30 metrgacha) bo‘lib, ular jami 7 turdan (6.03%) tashkil topgan — *Betula pendula, B. tianschanica, Prunus armeniaca, P. divaricata, Sorbus persica, S. tianschanica, Fraxinus sogdiana.*

Nanofanerofitlar guruhi asosan Tog‘lio‘rtaosiyo areal sinfi turlaridan iborat bo‘lib, ularning yuqori konsentratsiyasi dengiz sathidan 500–2500 m balandlik oralig‘iga to‘g‘ri keladi.

Xamefitlar (Chamaephyta, Ch) – yangilanish kurtaklari yuzaga yaqin joylashgan, 20–30 sm dan yuqori bo‘lmagan yarim buta, passiv, aktiv va yostiqsimon xamefitlardan tarkib topgan (Aypeisova, 2017). Ular 7 oila va 9 turkumdan 21 tur bilan ifodalanadi.

